


2020- yil yakuni



## **SURXONDARYO VILOYATIDA SO‘G‘LIQNI SAQLASH TO‘G‘RISIDA TAHLILY MATERIAL**



***Surxondaryo viloyati  
statistika boshqarmasi***



**Tibbiyot muassasalari tarmog'iga** shifoxona va ambulatoriya-poliklinika, tez tibbiy yordam, onalik va bolalik himoyasini ta'minlash hamda sanitariya-epidemiologiya yo'nalishidagi va boshqa muassasalar kiradi.

**Shifoxona muassasi** – kechayu kunduz tibbiy yordam ko'rsatuvchi, bemorlarni diagnostika, davolash va rehabilitatsiya qilish uchun mo'ljallangan, professional tayyorlangan amaliyotga ega, kamida bitta shifokori mavjud statsionar davolash muassasasi.

**Aholining kasallanishi** yil davomida davolash-profilaktika muassasasiga murojaat qilganda yoki profilaktik ko'rikdan o'tayotganda aniqlangan (yoki dispanser kuzatuvi ostiga olingan) ilk bor tashxis qo'yilgan bemorlar soni bilan izohlanadi.



## SURXONDARYO VILOYATIDA 2020- YIL YAKUNIGA KO'RA SOG'LIQNI SAQLASH SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI



2020- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, Surxondaryo viloyatida 62 ta shifoxonalar faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 43,5 % i (27 tasi) xususiy mulkchilik shaklidagi subyektlar hisoblanadi. soni 2019- yilga

**Ma'lumot uchun:** ► **Shifoxona** — statsionar sharoitda tibbiy yordam ko'rsatuvchi sog'liqni saqlash muassasasi hisoblanadi

► **Ambulatoriya-poliklinikalari** ambulatoriya sharoitida tibbiy yordam ko'rsatuvchi va (yoki) tibbiy tahlil o'tkazadigan sog'liqni saqlash muassasasi (poliklinikalar, ambulatoriya, dispanserlar, tibbiy-sanitariya qismlari va boshqalar) hisoblanadi.



### Surxondaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan davolash-profilaktika muassasalarini mulkchilik shakli bo'yicha taqsimlanishi (*birlik*)




- Jami shifoxonalar soni
- shundan: kichik korxonalar va mikrofirmalar
- Ambulatoriya-poliklinikalari soni
- shundan: kichik korxonalar va mikrofirmalar



2020- yil yakuniga ko'ra, Surxondaryo viloyatida 278 ta ambulatoriya-poliklinikalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 40,6 % i (113 tasi) mulkchilik shakli bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalar hisoblanadi.



## 2020- yil yakuniga ko'ra viloyatda faoliyat yuritayotgan shifoxona va ambulatoriya-poliklinikalari soni (birlik)



Tumanlar kesimida faoliyat yuritayotgan shifoxonalar soni bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Denov tumani, (15 ta) Termiz shahri (14 ta), Termiz tumani(6 ta) hamda Jarqo'rg'on tumanlari (5 ta) hissasiga to'g'ri kelmoqda. Aksincha, boshqa hududlarga nisbatan shifoxonalar soni bo'yicha eng kam ko'rsatkich Uzun, Sariosiyo, Muzrabot, Bandixon hamda angor tumanlarida (1ta) kuzatilmoqda.

Shuningdek, faoliyat yuritayotgan ambulatoriya-poliklinikalari soni bo'yicha tumanlar kesimida tahlil qiladigan bo'lsak eng yuqori ko'rsatkich Denov (42 ta), Termiz shahri (31 ta), Sho'rchi (26 ta), Sherabod (23 ta), Qumqo'rg'on (19 ta) hamda Uzun tumanlari (19 ta) hissasiga to'g'ri kelmoqda. Aksincha, boshqa tumanlarga nisbatan ambulatoriya-poliklinikalari soni bo'yicha eng kam ko'rsatkich Termiz tumani (7 ta) va Bandixon tumanlarida (7 ta) kuzatilmoqda.



2020- yil yakuni



**Surxondaryo viloyatida  
davolangan bemorlar soni**  
(ming, kishi)

Surxondaryo viloyati. 395,9

22,0 Jarqo'rg'on

Termiz shahri 94,9

20,1 Qumqo'rg'on

Oltinsoy 14,0

15,1 Qiziriq

Angor 15,9

24,8 Sariosiyo

Bandixon 4,4

17,1 Termiz

Boysun 14,3

16,8 Uzun

Muzrabot 12,9

24,1 Sherabod

Denov 44,6

18,7 Sho'rchi